



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 17-may, shanba,
58 (24.084)-son

O'zbek xalq
maqoli

Gap -
boshqa,
ish -
boshqa

Ishtixondagi poliklinikada qanday o'zgarishlar bo'ladi?

Shu yilning 7-may kuni mamlakatimiz rahbari raisligida tibbiyot sohasidagi islohotlarning navbatdagi bosqichida turgan ustuvor vazifalar muhokamasiga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda birlamchi tibbiyot sohasida kutilayotgan katta yangiliklar xususida ham to'xtalib o'tildi. Ushbu yangiliklar qay tarzda amalga oshirilishi Ishtixon tumani misolida tahlil etildi.

- Ishtixondagi "O'zbekiston" poliklinikasiga 7 ta mahalla biriktirilgan. Lekin 6 nafar oilaviy shifokor 9 ta shtatni band qilib, yuklamani eplay olmayapti. Bu poliklinikada yana 6 ta vrach shtati bo'sh, - dedi Prezident yig'ilishda. - Kafolatlangan paketga zarurati puxta o'ylanmasdan 90 turdagi dori kiritilgani bois poliklinikaga buning yarmi ham kelmayapti. Poliklinikadagi laboratoriya tahlilini birorta shifoxona tan olmaydi.

Eng ko'p murojaat bolalar kasalliklariga to'g'ri kelgani bilan, oilaviy shifokorlarda ko'nikma yetishmagani uchun ular pediatri vazifasini to'liq bajara olmayapti. Tug'ruq yoshidagi 9 ming ayol uchun bor-yo'g'i 1,5 stavka ginekolog shtati berilgan.

Aholining 35 foizi yurak-qon tomir, qandli diabet, oshqozon-ichak kabi surunkali kasalliklarga chalingan. Bunday kasalliklarni erta aniqlash, profilaktika qilish va asoratlarni kamaytirish bo'yicha tibbiyot brigadalarining ishi ko'rinmayapti.

Masalan, Ishtixondagi poliklinikaga va mahallalarga viloyatdagi kardiologiya, endokrinologiya va ona-bola markazlari, markaziy shifoxona vrachlari biriktiriladi. Ular mahallalarda yurib, aholini to'liq diagnostikadan o'tkazadi, biriktirilgan oilaviy shifokorlarga kasalliklarni erta aniqlash va davolashni joyida o'rgatadi, davolash va diagnostika bo'yicha yangicha yondashuvlarni poliklinikada joriy qiladi.

Samarqand tibbiyot universiteti professor-o'qituvchilari, magistratura bitiruvchilari ilmiy ishlarini shu yerga kelib yozadi. Yil yakunida natija bo'lsa, mahallaga biriktirilgan ushbu mutaxassislar oyligining ikki karra miqdorida mukofotlanadi.

Prezident aytilgan yangi tizimni joriy yilda Ishtixon bilan birga Samarqand shahri, Bulung'ur tumani va qolgan viloyatlarning bittadan tumanida, keyingi yildan to'liq Samarqand viloyatida, 2027 yildan esa bosqichma-bosqich barcha hududlarda joriy qilishga topshiriq berdi.

Aytish kerakki, tahlil etilgan mazkur misol birgina ushbu tumanga emas, aksar hududlardagi birlamchi tibbiyot tizimiga tegishli. Aynan Ishtixonning tanqid etilgani tuman ahliga foyda bo'ldi. Allaqachon hududda o'zgarishlar haqida bosh qotirilyapti, sohaning yetakchilari tumanga kelib, yangi tizimni joriy etish bo'yicha izlanishlar olib bormoqda.

VAZIR ISHTIXONDA VAZIRI YATNI O'RGANDI

Tumanda Sog'liqni saqlash vaziri Asilbek Xudayarov boshchiligidagi viloyat tibbiyotchilari ishtirokida tanqidiy-tahliliy yig'ilish ham o'tkazildi.

-Birlamchi bo'g'inda ishlarni to'g'ri tashkil etmay turib, kasalliklarni erta aniqlash va ularning oldini olish qiyin, - dedi A.Xudayarov. — Shu bois davlatimiz rahbari bu borada oldimizga katta vazifalar qo'ydi. Uning ijrosini yangi tizim asosida Ishtixonda amalga oshiramiz. Keyinchalik bu tajriba qolgan tumanlarda ham joriy

etiladi. Ta'kidlanganidek, bugun Ishtixon boshqa hududlar orasida qator ko'rsatkichlar bo'yicha ortda qolmoqda. Ayniqsa, tibbiyotning birlamchi bo'g'inida ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatidan aholi rozi emas.

Shu bois, avvalo, yangi tizim asosida tumandagi birlamchi tizim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, tibbiy jihozlar ta'minoti hamda bino va inshootlar to'liq inventarizatsiyadan o'tkazilib, o'rganish natijalariga asosan mavjud kamchiliklar bartaraf etiladi. Shuningdek, tumandagi 62 ta mahallada yashovchi qariyb 282 ming nafar aholi xatlov qilinib, "mahalla profili" shakllantiriladi.

Yig'ilishda I va II guruhga mansub aholi o'rtasida to'g'ri ovqatlanish, jismoniy faollik, zararli odatlarga qarshi kurashish, kasalliklar profilaktikasi bo'yicha xonadonma-xonadon yurib, individual tarzda ishlash, har bir mahallada "Salomatlik maktablari"ni shakllantirish yuzasidan mas'ullarga topshiriqlar berildi. III va IV guruhga kirgan bemorlarning esa tuman, viloyat, respublika darajasida salomatligini tiklash, ular uchun alohida sog'lomlashtirish rejasini ishlab chiqish, oilaviy poliklinikalarda eng ko'p uchrayotgan xastaliklar bo'yicha "bemor marshruti"ni joriy qilish belgilandi.

UZOQ KUTILGAN YANGILIK

-Tumanda 17 ta oilaviy shifokorlik punkti, 4 oilaviy poliklinika maqbullashtiriladi, - deydi Ishtixon tumani tibbiyot birlashmasi boshlig'i vazifasini vaqtinchalik bajaruvchi Bahodir Abdurazzoqov. - Birlamchi tibbiyot tizimidagi yangi o'zgarish aynan Ishtixondan boshlanishi bizga katta mas'uliyat yuklaydi, lekin bu vazifani uddalaymiz. Negaki bu juda uzoq kutilgan yangilik. 35 yildan beri birlamchi tizimda faoliyat ko'rsatganman. Mudom oilaviy shifokor yetishmovchiligi kuzatilgan. Buning sababi aniq, yarim stavka ishlaydigan shifokorlar mavjudligi, maoshlarning kamligi, qog'ozbozlik ko'p, ish yuklamasining kattaligi. Bugungi kunda 105 nafar oilaviy shifokor shtati bo'lgan Ishtixon tumanida 60 nafar umumiy amaliyot shifokori faoliyat ko'rsatmoqda. Qolaversa, ushbu oilaviy shifokorlarning 50 foizi nafaqa yoshidagi xodimlar sanaladi. Boshqa ilojimiz yo'q, yoshlarni bu tizimda ishlashga majbur etolmaymiz, hatto bitiruvchilar ham bir-ikki yil ishlagach, shifoxonalarga o'tib ketadigan bo'lishdi. Mamlakatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan yig'ilishdan so'ng tizim umuman o'zgaradi va birlamchi tibbiyot to'la ma'noda aholi salomatligiga mas'ul muassasaga aylanadi.

Endilikda hududda 12 mingdan ko'p aholiga xizmat qiladigan 7 ta poliklinika faoliyat ko'rsatib, qolgan 27 tasi kichik poliklinika sifatida qaytadan tashkil etiladi. Tuman markaziy ko'p tarmoqli poliklinikasi tuman shifoxonasining maslahat diagnostika bo'limiga aylantiriladi.



Gulruh
MO'MINOVA.

Viloyat hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev Samarqand shahrida yashovchi og'ir toifadagi, ishsiz, uyushmagan yoshlar bilan ochiq muloqot o'tkazdi.

Uchrashuvda 30 nafarga yaqin yoshlar ishga joylashish, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish, IT va kasb-hunar o'rganish, biznes-reja va start-ap loyihalarini amalga oshirish bo'yicha murojaat qildi.

Jumladan, Kattaqo'rg'on mahallasidan Sevinch Nadjafova uy sharoitida shirinliklar tayyorlab sotishni yo'lga qo'yish maqsadida pech so'rab qilgan murojaati ijobiy hal qilindigan bo'ldi.

Kamolot mahallasida yashovchi Ulug'bek Akbarov aviakassa ochish istagini, Ixtiyor Rasulov IT sohasida ishlash uchun sertifikatini borligini aytib, kompyuter olishda yordam so'radi. Murojaatga Yoshlar ishlari agentligi viloyat va shahar bo'limlari tomonidan yechim topilishi aytiladi.

Beklar mahallasida yashovchi Kamronbek Karimov novvoylik faoliyatini boshlash uchun asbob-uskuna so'rgan bo'lsa, Pokiza Sobirova tikuvchilik qilish uchun tikuv mashinasi kerakligini bildirdi. Viloyat rahbari mas'ullarga ikkala murojaatni o'rganib, tez fursatda hal etish bo'yicha topshiriq berdi. Shu mahallada ustachilik bilan shug'ullanuvchi Otabek Abduraufovga esa qurilish tashkilotida ishlash taklif etildi.

Muloqot davomida yoshlar tomonidan



Viloyat rahbari yoshlarni eshitdi

shu kabi murojaatlar bilan birga, sog'lig'i va oilaviy ahvolini yaxshilash maqsadida ko'mak so'rganlar ham bo'ldi.

- Ikki nafar farzandimiz bor, turmush o'rtog'im xorijda, - deydi Kamolot mahallasida yashovchi Shahlo Quvratova. - O'zim ishsizman, lekin chevarlik qo'limdan keladi. Uch yoshli o'g'lim haligacha yaxshi gapira olmaydi, shifokorga ko'rsatishga esa imkoniyatimiz yo'q.

Kun nafasi



Самарқанднинг фидойи фарзандлари

Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университетида филология фанлари доктори, профессор Муслихиддин Мухиддинов таваллудининг 80 йиллигига бағишланган “Алишер Навоий ва адабий таъсир масалалари: бадий ижод, компаравистика ва ренессанс” мавзuidaги халқаро илмий-назарий анжуман ўтказилди.

Анжуманда мамлакатимиз ва хориждаги навоийшуно олимлар, олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари ва тадқиқотчилар иштирок этди.

Конференция аввалида вилоят ҳокими вазифасини бажарувчи А.Бобоев, Самарқанд давлат университети ректори Р.Холмуродов, Ўзбекистон Ғафлар академияси академиги Қ.Ғуломов, Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети ректори, академик Ш.Сирожиддинов ва бошқалар Ўзбекистонда хизмат кўрсатган ёшлар мураббийи, “Эл-юрт хурмати” ордени соҳиби М.Мухиддиновнинг ўзбек адабиёти тарихи, хусусан, Навоий ижодий меросини ўрганиш борасидаги хизматларини эътироф этиб, олимни қутлуг ёши билан табриклади.

Анжуман ялпи мажлисдан сўнг Алишер Навоий ва Риёзий Самарқандий, Навоий қиъъалари: образ, маъно ва тасвирдаги янгилинишлар, Алишер Навоий ижодида издошлик ва ижодий ўзига хослик масаласи, Навоий қофиясининг тақтиё имкониятлари, Навоийнинг ҳамд ва наъз қиъъалари поэтикаси, Қутбий ижодида Навоий аънаналари каби шуъбаларда давом этди. Бу мажлисларда 80 га яқин олимларнинг илмий мақолалари тингланиб, муҳокама қилинди.



Вилоят мусиқали драма театрида таниқли шоира, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган маданият ходими, “Эл-юрт хурмати” ордени соҳибаси Хосият Бобомуродова таваллудининг 75 йиллиги муносабати билан ижодий учрашув бўлиб ўтди.

Тадбирда иштирок этган вилоят ҳокими вазифасини бажарувчи А.Бобоев шоирани қутлуг ёши билан табриклаб, Самарқанд адабий муҳити ривожига Хосият Бобомуродованинг катта ҳиссаси борлигини эътироф этди.

Ижодий кечада Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси раиси ўринбосари Ғайрат Мажд, Самарқанд халқаро технология университети ректори Юсуф Абдуллаев ва бошқалар Хосият Бобомуродованинг ижоди, ҳаёт йўли ҳақида сўз юритдилар. Шоиранинг янги нашр этилган сайланмаси тақдирот қилинди.

Айни пайтда Самарқанд халқаро технология университети ўзбек тили ва маданияти маркази профессори сифатида меҳнат қилаётган Хосият Бобомуродованинг педагогик-ижодий фаолияти эътироф этилди.

Тадбирда шоира шеърлари билан айтиладиган кўшиқлар ижро этилди.



“Нуронийлар маскани”да ибратли оилалар эътироф этилди

Самарқанд шаҳрида “Нуроний” жамғармаси вилоят бўлимининг қайта таъмирланган “Нуронийлар маскани” биноси фойдаланишга топширилди.

Шу муносабат билан ўтказилган тадбирда вилоят ҳокими вазифасини бажарувчи Адиз Бобоев, “Нуроний” жамғармаси республика бошқаруви раиси Содикжон Турдиев ҳамда вилоят, шаҳар ва туман фаоллари, нуронийлар, кенг жамоатчилик вакиллари иштирок этди.

Мазкур бинода меҳнат фахрийларининг маданий ҳордиқ чиқариши учун шахмат-шаҳка майдони, китоб мутлоа қилиш учун мўъжаз кутубхона ташкил этилган.

Тадбирда Халқаро оила кун муносабати билан вилоятдаги бир қатор намунали оилалар вакиллари “Ибратли оила” кўрак нишони топширилди.

– Оиладаги соғлом маънавий муҳит, яхши аънаналар, фарзандларнинг чиройли таълим-тарбияси бу нафақат ўша оиланинг, балки маҳалланинг ҳам тинч-оқойишталиги, муваффақияти калитидир, – дейди Жомбой туманида яшовчи, “Ибратли оила” кўрак нишони соҳибаси Ҳафиза Ўсарова. – Бежиз мустаҳкам оила – жамият таянчи, дейилмаган. Оилаларимиз мустаҳкам, тинч-оқойишта бўлса, бу жамиятга ҳам кўчади. Шунинг учун Президентимиз ташаббуси билан “Ибратли оила” кўрак нишони таъсис этилиб, бу номга муносиб оилалар вакиллари эътироф этилиши аввало, давлатимизнинг оилага бўлган юксак эътибори ифодаси деб биламан. Бугун бизнинг оиламиз ҳам эътироф этилиб, ушбу нишонга муносиб кўрилганини катта ишонч деб қабул қиламан.

Б.МУСТАНОВ.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Maqsuda VORISOVA, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati:

- Xalq salomatligini asrash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ekan, avvalo, sog'liqni saqlash tizimini, farmatsevtika bozorini aldamchi reklamalar va insofsiz biznesdan tozalash vaqti keldi.



Odamlar orasida, odamlar dardi bilan bulungʻurlik deputatlar shunday ish olib borishmoqda

Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida qonunchilik tizimi takomillashtirib borilmoqda, deputatlarning tom maʼnoda “xalq vakillari” boʻlishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda.

SESSIYA – KENGASHNING ASOSIY YIGʻINI

Xalq deputatlari Bulungʻur tuman Kengashi kotibiyati tomonidan joriy yilning oʻtgan davrida 5 marta sessiya oʻtkazilgan. Ularda xalq deputatlari vakolatiga oid 40 dan ortiq masala koʻrib chiqilib, tegishli qarorlar qabul qilingan.

Jumladan, 11 marta mutasaddilar – sektor rahbarlari, tuman hokimining oʻrinbosarlari, korxona va tashkilot rahbarlarining hisobotlari eshitilgan. Yaʼni, ularning faoliyati muhokama qilinib, zarur tavsiyalar berilgan. Bundan tashqari, prokuror, adliya boʻlimi boshligʻi, xalq qabulxonasi rahbarining axboroti eshitilgan.

Kengashning asosiy yigʻini haqida gap ketganda, deputatlar tashabbusi bilan 6 ta masala sessiyalar kun tartibiga kiritilganini alohida qayd etish lozim. Bu esa har bir sessiyada xalq vakillari taklif qilgan, hech boʻlmaganda, bitta mavzu muhokama qilinganini anglatadi.

Toʻgʻri, sessiyaga faqat bir marta bitta nazorat-tahlil tadbirlari bilan bogʻliq masala kiritildi. Mazkur holat ijro organini nazorat qiluvchi tuzilma sifatidagi faoliyat-imizni jonlantirishimizni anglatadi.

Asosiysi, sessiyalar tumaning rasmiy kanallari, tuman gazetasi va boshqa ommaviy axborot vositalarida hamda “Feysbuk” ijtimoiy tarmogʻida toʻgʻridan-toʻgʻri yoritib borilmoqda.

DEPUTATLAR OʻRTASIDA RAQOBAT BOR

Xalq deputatlari Bulungʻur tuman Kengashining deputatlari tomonidan 2025-yil 3 oy davomida 31 ta deputatlik soʻrovlari chiqarilgan boʻlib, ulardan 30 tasiga tegishli tartibda javob xatlari olingan.

Qonunchilikda deputatlarning yiliga ka-

mida 4 marta, yaʼni har chorakda bir marta saylovchilarga oʻz faoliyati toʻgʻrisida axborot berib borishi belgilangan. Shunga binoan, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va deputatlar tomonidan 22 marta joylarda uchrashuv va muloqotlar oʻtkazilgan boʻlib, 28 ta muammo aniqlangan. Aniqlangan muammolar tegishli tartibda hal etilmoqda.

Xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlarining sessiyalarda faolligi, saylovchilari bilan uchrashuvlari, korxona va tashkilotlarga yuborilgan deputatlik soʻrovlari hamda ommaviy axborot vositalarida chiqishlari Kengash kotibiyati tomonidan har oyda tahlil qilib borilib, telegram tarmogʻida reyting natijalari eʼlon qilib borilmoqda.

Bu albatta, deputatlar oʻrtasida sogʻlom raqobat muhitini shakllantirmoqda. Uni yanada yaxshilash uchun esa xalq vakillarini moddiy ragʻbatlantirib borish zarur. Toʻgʻri, bu borada Oliy Majlis Senatining tegishli hujjati bor. Ammo u tavsiyaviy xarakterga egaligi, zarur normativ hujjat yoʻqligi sabab faol deputatlarni moliyaviy taqdirlash imkoni boʻlmayapti.

Joriy yilgi davlat dasturida hududiy budjetlarning orttirilgan mablagʻlarini deputatlar taklifi bilan tasarruf etish masalasi belgilangan. Balki ayni masala xalq noiblarining moliya sohasidagi “soʻz”i salmoqli boʻlishini taʼminlar?!

PARTIYALAR FAOLLIGI YETARLI EMAS

Sessiyaga kiritilgan masalalarning aksariyati axborot va hisobotlar. Deputatlar berilgan hisobotlardan qoniqmagan hollar boʻlmagan. Sababi har bir masala sessiyada muhokama etilishidan avval tegishli doimiy komissiyada qayta-qayta muhokama etiladi.

Uch oy davomidagi sessiyalarga 2 ta masala siyosiy partiyalar deputatlik guruhlar tomonidan kiritilgan.

Xususan, Ekologiya partiyasining deputatlik guruhi tashabbusi bilan “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida

Mahalliy kengashlarda



Bulungʻur tumanida amalga oshirilayotgan ishlar, ekologik holatni yaxshilash hamda ekologik nazoratni amalga oshirilishi haqidagi masala sessiyada muhokama qilinib, qaror qabul qilindi.

Xalq demokratik partiyasi deputatlik guruhi esa sessiyaga 2025-yilda tumanida aholining doimiy, mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda bandligini taʼminlash boʻyicha olib borilayotgan ishlar toʻgʻrisidagi masalani kiritgan.

Bir qarashda hammasi koʻngildagidek – partiyalar oʻzaro raqobatlashgan, ular sessiyalar kun tartibiga saylovchilar manfaatlariga mos masalalarni kiritmoqda. Lekin kiritilgan masalalar rasmiyatchilik uchun ekanligi bir qarashdoyoq bilinib turibdi. Aslida tumanlardagi ayrim partiya kengashlarining shtat birliklari yoʻqligi, baʼzilarida faqat raisdan boshqa ishchiga ish haqi toʻlanmasligi quyiga boʻlayotgan “eʼtibor”ni koʻrsatib turibdi.

Toʻgʻri, yil yakuni bilan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlari ham ijro hokimiyatidan toʻla ajratiladi. Balki oʻshanda partiyalarning markaziy kengashlari hududiy apparatlarni mustahkamlashar.

TAJRIBA + TAKLIF ...

Hozirgi kunda respublikaning turli dasturlariga Bulungʻur tumanidan kiritilgan masalalar boʻyicha tadbirlar nazorat-rejasi ishlab chiqilgan. Nazorat-rejaga asosan, tumanida 43 ta loyihani amalga oshirish koʻzda tutilgan. Har bir deputat oʻz hududidagi loyihalar boʻyicha nazorat oʻrnatishi belgilangan va masala ijrosini oʻrganib boryapmiz.

Shunga qaramay, deputatlar faoliyatini jonlantirish, ularning tom maʼnodagi xalq noiblari boʻlishlari uchun nimalar yetishmaydi, degan savol oʻylantiradi. Buning uchun birinchi navbatda saylov jarayonlarida siyosiy partiyalar bilan haqiqiy siyosatchi nomzodlarni koʻrsatishga erishish lozim, deb oʻylayman. Imkon qadar davlat boshqaruvi sohasida boʻlmagan deputatlar korpusini shakllantirish kerak.

Eng muhimi, deputat saylovchilar oldidagi majburiyatini bajarishi uchun munosib ish sharoiti hamda maxsus texnik vositalar bilan taʼminlanishi shart. Toki ular qayerda qogʻoz qoralash, qayerda diskussiya va muloqot oʻrnatish mumkin, degan muammo bilan roʻbaroʻ kelmasin.

Bundan tashqari, kuchli kengash boʻlishi uchun kamida 10 nafar deputatning shtat asosida ishlashini taʼminlash zarur. Chunki kengashda jamoatchilik asosida faoliyat yuritayotgan deputatlarning asosiy ish joyi, vazifasi bor va uni bajarish uchun ham 9 dan 18 gacha vaqt ajratilgan. Unda qaysi vaqtda deputatlik faoliyati bilan shugʻullanishga imkoni boʻladi?

Alijon SHOKIROV,
xalq deputatlari Bulungʻur tumani Kengashi kotibiyati mudiri.

Bugunning gapi



ЧИГИРТКА БАЛОСИ: УНГА ҚАРШИ ҚАНДАЙ КУРАШИЛАДИ?

Аввал Самарқанд ҳудудида чигиртканинг қишлоқ хўжалик экинларига катта зарар етказиш ҳолатлари жуда кам учраган ёки сезилмаган. Бироқ кейинги йилларда иқлим ўзгариши, қурроқчиликнинг ортиши туфайли чигиртка кўплаб ҳудудларда аграр соҳага жиддий зарар етказмоқда.



Бир неча йиллар олдин вилоятнинг Нуробод, Қўшрабoт каби ҳудудларида чигиртка кўпроқ кузатиладди. Ҳозир эса Булунғур, Жомбой, Каттақўрғон, Пайарик, Паст Дарғом, Самарқанд туманларининг тоғ ва тоғ олди ҳудудларида ҳам чигиртка кўпаймоқда.

- Вилоят туманларининг тоғ ва тоғ олди яйловларида 2025 йил мавсумида зараркунандалар ўчоғига айланиши мумкин бўлган 71 минг 760 гектар майдонда кузатувлар ташкил қилиниб, 66 минг гектар майдонда зарарли чигирткаларга қарши кимёвий ишловлар ўтказилиши башорат қилинган, - дейди вилоят ўсимликлар карантини ва ҳимояси бошқармаси қошидаги чигиртка ва тут парвонасига қарши кураш хизмати бошлиғи Зафар Эргашев. - Ҳозир қунига ўртача 1250 гектар майдон зараркунандалардан тозаланмоқда. Иссиқ ва қуруқ иқлим чигирткаларнинг кўпайишига сабаб бўлмоқда.

Вилоятнинг тоғ ва тоғ олди яйловларида зарарли чигирткаларнинг “Марокаш”, “воҳа чигирткаси” (“Италия пруси”) каби турлари кўп учрайди. Унга қарши кимёвий ишлов ўтказиш учун Нуробод, Жомбой, Қўшрабoт, Пайарик туманларида 4 та отряд ташкил қилинган. Улар қўл аппаратлари, 6 дoна OВX-600, 6 дoна ВП-1 пуркагичлари ва 3 та автомашинага ўрнатилган УМО пуркагичлари, 2 дoна ИСУЗИ сув ташиш техникаси билан таъминланган.

Бизда катта ташвиш уйғотган ҳoлат Қўшрабoт туманида кузатилмоқда. Тумандаги 14 минг гектар майдонга кимёвий ишлов режалаштирилиб, шундан 5 минг гектари кузатувга олинган. Аммо назоратдаги майдонлардан бир неча барoбар кенг ҳудудда зараркунанда галалари пайдо бўлди.

Нуробод туманида кузатувдаги 24

минг гектар майдоннинг салкам 19 минг гектариде чигиртка кўпайиши қайд этилди.

Аслида вилоятимизда чигиртканинг 10 дан ортиқ тури учрайди, лекин асосан тоғ ва тоғ олди яйловларида чигиртканинг “Марокаш” ва “Италия пруси” турларига қарши кимёвий ишловлар ўтказилади. Чунки бу турлар барча қишлоқ хўжалиги экинлари ва ўсимликларга зарар етказди. Чигиртканинг энг зарарлиси, яъни, биз кимёвий ишлов ўтказадиган “Марокаш” чигирткалари йилнинг келишига қараб март ойи охири апрел ойи бошларида тухумдан чиқади ва июн ойи охириларигача ҳаёт кечиради.

Маълумотларга кўра, ўтган йили вилоят бўйича 13715 гектар майдон чигирткадан зарарланган бўлса, жорий йилда бу кўрсаткич аллақачон 70 минг гектарга етган. Айниқса, чорва моллари боқиладиган майдонларда зарарланиш катталигича қолмоқда. Лекин шуниси аҳамиятлики, чигиртка сони ўтган йилгидан ўзгармаган, яъни кўпаймаган. Ўтган йилдан фарқли ўларoқ жорий йилда ёғингарчиликнинг кам бўлиши ва ҳарoратнинг исиб кетиши, яйлов ва далаларда ўсимликларнинг тез қуриб қолиши туфайли чигирткалар озука излаб аҳоли истиқомат қиладиган ҳудудлар томон ҳаракатланмоқда. Шу боис чигирткага қарши кураш асосида аҳоли oрасида тушунтириш ишлари олиб борилмоқда. Уларга ҳашаротларга қарши қўлланиладиган кимёвий дорилар мутлақо бeпул ва oдамларга зарарсизлиги, биргаликда ҳаракат қилса, чигиртка экинларга катта зарар етказмасдан олдини олиш мумкинлиги тушунтирилмоқда.

Ўқтам ХУДОЙБЕРДИЕВ
“Зарафшон” муҳбири.

Oʻzbekistonda qishloq xoʻjaligi uchun suv isteʼmoli yiliga taxminan 35-40 milliard kub metrga yetadi. Bu mamlakatdagi umumiy suv isteʼmolining katta qismini tashkil etadi, degani.

Keyingi vaqtlarda togʻoldi va lalmikor yerlarning oʻzlashtirilishi oqibatida bu raqamlar ortib bormoqda.

Aholi tomorqasida yetishtiriladigan qishloq xoʻjalik mahsulotlarining katta qismi erkin qushʻorish usuli orqali yetishtiriladi. Aytaylik, 1 kilogramm pomidor yetishtirish uchun 15-20 litr suv sarflansa, uning bozordagi bahosi mavsumga qarab, 10-15 ming soʻmgacha boʻlishi mumkin. Buni tahlil qilib koʻradi-gan boʻlsak, butun respublika boʻyicha hisoblan-ganda, katta raqamlarda suvdan besamar foydalanilayotganini koʻrsatadi.

Yana bir fakt. Aholi sonining oʻsishi suv resurs-lariga boʻlgan talabni oshirmoqda. Bugungi kunda Oʻzbekiston aholisining soni 37 milliondan ortiq. Bir kishi kun davomida oʻrtacha 2-3 litr suv isteʼmol qil-sa, ular kundalik ehtiyojlar uchun bundan oʻn baro-bar koʻp isteʼmol qiladi.

Endi bu maʼlumotga eʼtibor qiling: iqlim oʻzgarishi natijasida Oʻzbekistonda qurgʻoqchilik holatlari har yili kuchaymoqda. Masalan, 2020-yilda mamlakat-niing ayrim hududlarida qurgʻoqchilik darajasi 4-5 ball boʻlgan. Hozir esa bundan koʻproq. Bunga oqo-va suv yetishmasligi ortida aholi va meva-sabzavot yetishtiruvchi yirik tuzilmalar ham yer osti suvlaridan keng foydalanayotganini misol keltirishimiz mumkin.

“2025-yil – “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili”: tejamkorlik, yashil energiyaga oʻtish, ekologik taʼlim”



OGOHI BOʻLING, SUV TUGAB BORMOQDA!



Negaki Oʻzbekistonda yer osti suv zaxiralari ham muhim rol oʻynaydi. Bu suvlar tabiiy ravishda yer ostidan joylashgan akviferdan olinadi. Biroq yer osti suvlarining miqdori va sifatiga taʼsir qiluvchi omillar, jumladan, qurgʻoqchilik va ortiqcha isteʼmol, bu zaxiralarni xavf ostiga qoʻyishi mumkin.

Shuningdek, aholi tomonidan yer osti suvlari na-faqat qishloq xoʻjaligi, balki boshqa xizmat koʻrsatish sohalarida ham keng ishlatib kelinadi. Xususan, avtomobil yuvish shoxobchalari, hammom, sartaro-shxona va goʻzallik markazlari shular jumlasidandir.

Yaqinda xizmat koʻrsatish markazlaridan biri - ham-momning faoliyatini oʻrgandik. Har bir foydalanuvchi uchun oʻrtacha 1 soat vaqt ajratilar ekan. Qulay sha-roitlarga ega xizmat koʻrsatish markazining kunlik suv sarfiga qiziqdim. Kishi boshi uchun 35-40 litr suv sar-flanar ekan. Shunda bir kunda mijozlar soniga qarab, 1-2 tonna suv ishlatilishi ayon boʻladi. Birgina kichik xizmat koʻrsatish markazi shuncha suv isteʼmol qilsa, respublika boʻylab bu kabi koʻplab maskanlar qancha suv sarflashini oʻylasangiz, hayratda qolasiz.

Bu raqamlar Oʻzbekistonda suv taqchilligi mua-mmosining jiddiyligini koʻrsatadi va ushbu masalani hal etish uchun chora-tadbirlar ishlab chiqish va amalga oshirishni talab qiladi.

Mehroj FAYZILOV,
xalq deputatlari Jomboy tumani Kengashi deputati.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutida Janubiy Koreya bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "O'zbekistonda kartoshka urug'chilik tizimini yanada rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish" loyihasi doirasida O'zbekistonda virussiz urug'lik kartoshka yetishtirish bo'yicha xalqaro seminar o'kazildi.



Institutda kartoshka urug'i tayyorlanmoqda

Seminarda O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi, Koreya qishloq jamiyati korporatsiyasi, Tojikiston Qishloq xo'jaligi fanlari akademiyasi, Koreya KOPIA dasturi va boshqa tashkilot vakillari ishtirok etdi.

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori Shavkat Hasanov, Koreya qishloq jamiyati korporatsiyasi Markaziy Osiyo ODA vakolatxonasi direktori Jang Jeongreol, Koreya KOPIA dasturi rahbari Kim Jae Hyun amalga oshirilayotgan loyiha, O'zbekistonda kartoshka urug'chiligini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan ishlar haqida so'z yuritdi.

Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimiz aholisini kartoshka bilan to'liq ta'minlash uchun 4,1 million tonna hamda urug'lik uchun 550-600 ming tonna urug'lik kartoshka

talab etiladi. Lekin yurtimizda 3,7-3,8 million tonna kartosha yetishtiriladi. Xususan, joriy yilda barcha toifadagi xo'jaliklarda 286 ming gektar maydonda kartoshka ekish va 3,8 million tonna yalpi hosil olish belgilangan. O'tgan yil Pokiston, Qozog'iston, Afg'oniston, Rossiya, Qirg'iziston va Eron davlatlaridan iste'mol uchun 703 ming tonna hamda urug'lik uchun 1,2 ming tonna kartoshka import qilingan.

– Loyihaning asosiy maqsadi O'zbekistonda import o'rnini bosuvchi urug'lik kartoshka yetishtirishning ilg'or texnologiyalarini ishlab chiqishdir, – deydi Samarqand

agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti rektori Shavkat Hasanov. – Bu borada mutaxassislar hamda mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ilmiy asoslangan takliflar beriladi, ularning bilimlari oshiriladi. Jumladan, shu paytgacha 10 nafar fermer xorijda o'qitildi va 6 nafar soha mutaxassisi Koreyada malaka oshirib keldi. Institutimizda invitro laboratoriyasi tashkil etilib, sog'lom kartoshka ko'chatlari tayyorlanmoqda. Hidroponika issiqxonasi va 3 gektar maydonda Nethouse barpo etilib, yiliga 30 ming dona mikro va minituganaklar yetishtirilmoqda.

B.MUSTANOV.

Chiqindi uchun xizmat narxini oshirish kerakmi? Nega?

Viloyat Matbuot uyida deputatlar, viloyatdagi sanitar tozalash korxonalari rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida shu masalaga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Xalq deputatari viloyat Kengashining agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi Baxtiyor Abdullayev olib borgan anjuman ko'proq muhokama shaklida o'tdi.

Unda dastlab chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi viloyat boshqarmasi boshlig'i Bekzod Payshanov viloyatda chiqindilarni olib chiqish va qayta ishlash holati, tizimdagi muammolar va ularni hal qilish bo'yicha taklif qilinayotgan yechimlar haqida ma'lumot berdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda viloyatning 1123 ta mahallasidagi 794770 ta xonadondan chiqindilarni olib chiqish tashkil etilgan. Jarayonga mas'ul tashkilotlarning 411 ta maxsus texnikasi hamda 2 ming nafardan ziyod xodimi jalb qilingan. Biroq amaldagi tariflarning pastligi, qo'shimcha daromadning yo'qligi sababli korxonalar moliyaviy qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Viloyat hokimining 2024-yildagi tegishli qarori bilan Samarqand shahri va tumanida bir kishi uchun

bir oyda 5600 so'm, boshqa tuman va shaharlarda 4624 so'm to'lov belgilangan. Yangi taklifga ko'ra, buni Samarqand shahri va tumani aholisiga 9500, yuridik shaxslarga 1 metr kub chiqindi uchun 124 ming so'm, qolgan tuman va shahar aholisiga 8 ming hamda yuridik shaxslariga 1 metr kub uchun 100800 so'm qilib belgilash nazarda tutilgan.

Anjuman ishtirokchilarini asosan ayni summa qaerdan kelib chiqqanligi va yangi tarifning tizim faoliyatida qanday aks etishi masalasi qiziqirdi. Sanitar tozalash korxonalari rahbarlarining izohiga ko'ra, ular o'tgan yillar davomida faqat moliyaviy zarar bilan ishlagan. Vaziyat maxsus texnikalarning yonilg'i-moylash materiallari, texnik vositalar va ularning ehtiyot qismlari narxi oshishi hamda mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori oshirilishi fonida yanada og'irlashmoqda. Bu esa o'z navbatida xizmat ko'rsatish sifatining pasayishi, xususan, chiqindilarni o'z vaqtida olib chiqish uchun texnika va ishchi kuchining yetishmasligiga olib kelyapti.

Tadbirda yangi tarif ayni muammolarni qisman hal qilish imkonini berishi aytili. Shuningdek, tegishli korxonalar qo'shimcha daromad qilish uchun chiqindini qayta ishlash bo'yicha yangi loyihalarga qo'l urayotgani, shu orqali sohani rivojlantirish rejalashtirilgani ta'kidlandi.



Uljon Amriyeva

ko'zi ojizlar o'rtasida jahon chempioni bo'lgan ilk o'zbekistonlik ayol sportchiga aylandi

Qozog'istonning Ostona shahri mezbonlik qilayotgan para dzyudo bo'yicha jahon chempionati ayollar o'rtasida J1 klassida (ko'zi ojizlar) - 64 kilogram vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qilgan urgutlik Uljon Amriyeva jahon chempioni bo'ldi.

Sportchimiz oltin medal uchun kechgan kurashda braziliyalik Silva Larissaga qarshi tatamiga chiqdi va ippon bahosi bilan g'alaba qozondi.

Uljon Amriyeva ushbu g'alaba-



si bilan jahon chempioni bo'lgan o'zbekistonlik birinchi ko'zi ojiz para dzyudochiga aylandi.

Uljon Amriyeva 1999-yilda Urgut tumanining Etak beshkapa mahallasida tug'ilgan. Ayni paytda viloyat yakkakurash turlariga ixti-

soslashtirilgan sport maktabi para dzyudo bo'limi sportchisi.

Shuningdek, ushbu musobaqada ishtirok etgan yana bir samarqandlik para dzyudochi Kemran Nurullayev J1 klassida oltin medalni qo'lga kiritdi.

SHAROFIDDIN AMRIDDINOV OSIYO CHEMPIONATI SOVRINDORI

Xitoyda og'ir atletika bo'yicha o'tkazilgan Osiyo chempionatida erkaklar o'rtasida -109 kilogram vazn toifasida yurtimiz sharafigini himoya qilgan toyloqlik sportchi Sharofiddin Amriddin-ov 181, 214 va 295 kilogramlik toshni bo'ysundirib, uchta kumush medalni qo'lga kiritdi.

"BESH TASHABBUS PARALIMPIADASI" G'OLIBLARI ANIQLANDI

Samarqand shahridagi sportning o'yin turlari va yengil atletika-ga ixtisoslashtirilgan sport maktabida adaptiv sport turlari bo'yicha mahalla yoshlari o'rtasida 18-30 yosh toifasida "Besh tashabbus paralimpiadasi"ning viloyat bosqichi o'tkazildi.

Musobaqada paralimpidaning tuman va shahar bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan 400 nafardan ziyod imkoniyati cheklangan va nogironligi bo'lgan ishtirokchi parasportning yugurish, uzunlikka sakrash, badminton, stol tennis (aravachada), shaxmat, shashka, armrestling turlari bo'yicha kuch sinashdi.

Bellashuvlarda birinchi o'rinni qo'lga kiritgan ishtirokchilar "Besh tashabbus paralimpiadasi"ning respublika bosqichiga yo'llanma oldi. **Sevinch XOLBEKOVA.**

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-noyabrdagi "Sport sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, sport maktablariga o'qishga kirish uchun hujjatlarni qabul qilish har yili 1-avgustdan 21-avgustga qadar amalga oshiriladi.

Sport maktablariga qabul jarayonlari o'zgardi (mi?)

Prezidentning 2024-yil 23-sentabrdagi "Xokkey sport turini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan sport maktablari va ixtisoslashtirilgan sport maktablariga o'quvchilarning hujjatlari qabul qilish hamda ularning o'qishini ko'chirish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish davlat xizmatlari markazlari yoki yagona interaktiv davlat xizmatlari portali orqali 2024-2025-o'quv yilidan yil davomida amalga oshirilishi belgilandi.

Oldingi yillarda 7 yoshdan 20 yoshgacha bo'lgan o'quvchilarning ma'lumotlari va ularning ota-onasi tomonidan arizalar sport maktabi direktori-

ga taqdim etilib, maktabga qabul qilinardi. Prezidentning 2022 yil 6 iyunidagi "Davlat sport-ta'lim muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan sport maktablariga 4 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan, sport bilan muntazam shug'ullanuvchi bolalar qabul qilinmoqda.

Shuningdek, 2024-2025-o'quv yilidan o'quvchilarni sport maktablariga qabul qilish, hujjat topshirish, sportchilarni saralash jarayonlari Sport vazirligi tomonidan ishga tushirilgan yagona elektron platforma orqali amalga oshiriladi. Hujjatlar onlayn va davlat xizmatlari markazi orqali qabul qilinadi.

Bundan tashqari, 2024-yildan sport sinovlari va me'yorlaridan o'tgan ishtirokchilar bilan birga, "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan yoshlar ham sport turlari bo'yicha to'garaklarga qamrab olinmoqda. Jumladan, ayni paytda sport ta'lim muassasalarida shug'ullanayotgan yoshlarning 3852 nafari sport sinovlari va me'yorlaridan o'tgan ishtirokchilar hamda "Besh tashabbus olimpiadasi" musobaqalarida yuqori natijalarga erishgan yoshlar sanaladi.

Asliddin NOSIROV, viloyat sport boshqarmasi sport maktablari faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUHOJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

TANLOVDA QATNASHING!

SamDTU stomatologiya fakulteti ortopedik stomatologiya kafedrasiga assistent lavozimiga (1 o'rin) tanlov e'lon qilinadi.

Talabgorlar tanlovda qatnashish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

- Rektor nomiga ariza.
- Xodimlarni hisobga olish bo'yicha so'rovnomasi.
- Oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi haqidagi diplomlari, ilmiy unvoni haqidagi attestati nusxalari.
- Tasdiqlangan ilmiy ishlari ro'yxati.
- Malaka oshirganligi to'g'risidagi sertifikat.

Murojaat uchun manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 18-uy.

INTEGRAL MA'RUZA O'TKAZILADI
SamDTU bolalar stomatologiyasi kafedrasida PhD assistenti J.B.Saidmurodova va SamDTU DKTf otarinarologiyasi kafedrasida PhD assistenti O'.S.Ne'matov 2025-yil 20-may kuni soat 10:00 da integral ma'ruza o'tkazadi.

Mavzu: "Surunkali tonuslitta bolalarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatidagi o'zgarishlar".

Manzil: SamDTU bolalar stomatologiyasi kafedrasida ma'ruzalalar zali.

Taklif qilinganlar: Stomatologiya fakulteti 5-kurs talabalari.

Ekspert: Terapevtik stomatologiya kafedrasida PhD v.b. dotsenti S.K.Muratova.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Toxirov Davronga (2009-yil 11-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Melikova Nazira Esanovnaga (2023-yil 8-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko'chasi.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasida marhum Turg'unov Jamshid Urunboyevichga (2024-yil 18-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-

mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ashurova Dilafuz Ziyodullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 110-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Sharipov Zarifga (2020-yil 9-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

BEKOR QILINADI

Abduxalikova Dillfuza Musinovna va Gulamova Dilshoda Musinovnalar o'rtasida Samarqand shahri Chilquduq mahallasi, Samarqand ko'chasi 68-"A"/26-uy-joy uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasidan 2024-yil 13-iyunda tasdiqlanib, Ksh 124704 SA blankada tuzilgan, 022401798002906 raqam bilan reestrga kiritilgan oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

"MATBUOT UYUSHMASI" MIJOZLARI DIQQATIGA!

"MATBUOT UYUSHMASI" MCHJ orqali obuna uyushtirilgan davriy nashrlar o'z vaqtida obunachilarga yetkazib berilishi ustidan qat'iy nazorat o'rnatilgan.

Agar bu borada e'tirozlar, taklif va mulohazalaringiz bo'lsa, quyidagi telefon raqamlariga murojaat etishingizni so'raymiz:

+99866-234-94-37, +99866-234-93-96, +99866-234-94-32, +99866-234-22-53.

"MATBUOT UYUSHMASI" MCHJ MA'MURIYATI.

Past Darg'om tumanidagi "DILNURA PAXTA G'ALLA DALASI" fermer xo'jaligining (STIR: 304629107) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "RATANA" mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311056841) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

Payariq tumanidagi "ASILABONU SAVDO SERVIS" mas'uliyati cheklangan


jamiyatining (STIR: 302802771) dumaloq muhri yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

TOPGANGA MUKOFOT

Fuqaro Istatov Nodirjon Baxrilloevich nomiga 2023-yil 23-avgustda berilgan AG 1342835 raqamli haydovchilik guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushurib qoldirilgan. Ushbu haydovchilik guvohnomasini topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99888-222-48-88.

Юртимда кезади чечаклар иси



Кўкламнинг ёмғир кўп ёғадиган намхуш оқшомлари болагигимизда жуда зерикарли туюларди. Ташқарида шамол ув тортар, дарахтларнинг шохи қарсиллар, итлар занжирини узгудек бўлиб, тинмай ҳурарди. Бу товущлардан ваҳимага тушиб, эналаримизни саволга тутардик:

- Ташқарида нима бўляпти?
- Аямажуз келган-да, болам.
- Аямажуз ёмонми?
- Ёмон эмас-у лекин раҳм қилмайди-да, - дерди энам.
- Кечагина богимиздаги зардолилар гулини тўкиб, барг чиқарганди. Мана, аямажуз баргларини битта-битта юлиб отяпти. Феъли шунақа-да.

"Демак, аямажузнинг ўзи эмас, феъли ёмон экан", деб ўйлардик ва ўзимизча унга хайрихоҳ бўлардик. Кейин эналаримиз ўргатган тилакларни пичирлаб айтардик:
Аямажуз яхши келсин, илойим,
Аямажуз яхши келсин, худойим...

- Хут келади ҳадемай, ишқилиб яхши келсин-да, - дер эди кексалар баъзан бир-бирови билан ўзаро суҳбатлашаётиб. Унинг ҳам айтиллари бор эди.

Яхши келган хўтини кўринг, Пақир тўла сутни кўринг. Ёмон келган хўтни кўринг, Керагада путни кўринг.
Айтишларича, хут яхши келса, кўкаламзор кўпайиб, сигирлар яхши сут беради. Ёмон келса, сел-жала тинмай, мол-қўйларнинг баъзи бирлари сувда оқар ёки жалада тойиб йиқилган қўйлар сўйилиб, керагага осиларкан.

Яна бир куни каттиқ шамол турди. Ёмғир томчилари деразани черта бошлади. Бирданига чироқ ҳам "лип" этиб ўчди. Укам билан бобомнинг ёнига чопиб бордик.

- Ҳозир ҳаммиз бирга қўшиқ айтамиз, кейин сираям кўркмайдиган бўласизлар, - деди бобом. Ўша қўшиқнинг сўзлари ҳали-ҳали ёдимда.

Шамол турса, кўркмагин, Шамол бобонг бўлади. Ёмғир ёгса, кўркмагин, Ёмғир момонг бўлади. Чақмоқ чакса, чўчима, Чақмоқ сенинг оғандир. Сел келганда, сапчима, У ҳам сенинг бобонгдир.
Чиндан ҳам шундан сўнг кўркув йўқолди. Гўёки бобом бир зумдаёқ табиат билан бизни дўстлаштириб қўйганди. Ёмғирнинг ҳам, шамолнинг ҳам товуши энди бизга хуш ёқиб, кўзимизни уйку элита бошлади. Эртасига ҳаво чараклаб очилди. Бир ҳафтагача кун тоза қизиди. Шунда бобом бизга "Қани, ёмғир қақиринглар", деди. Биз катталардан ўрганганларимизни хиргойи қилдик:

Деҳқон бобо хув деди, Дала-боққа сув деди. Гулдурак момо, кел-эй. Тоғ-дарадан ошиб ўт, Дала-боғдан шошиб ўт, Гулдурак момо кел-эй...
Айтишларича, шох Фируз замонида Эронда етти йил ёмғир ёғмаган экан. Шунда эл-улус ибодатхоналарга бориб, гайб кучлардан ёмғир сўрашган.

Йил қурғоқ келиб, ҳосил кам бўлган йилларда одамлар гўёки,

сув ҳомийси бўлган Султон хотиндан мадад тилашса, ёмғир юборармиш. Ўша кезларда биз болалар чўпга ўраб ясалган латта кўғирчоқни бош узра кўтариб, қўшиқ хиргойи қилардик:

Ёмғир ёғдир, ҳўл бўлайлик, Биз ҳам сенга жўр бўлайлик. Арпа-буғдой мўл бўлсин. Суту қатиқ кўп бўлсин. Ёмғир ёғдир, ҳўл бўлайлик...
Биз Наврўз сайилларига чиқиб, варрак учираётган кезларимизда бор овозимиз билан шамолни қақирардик:
Шамол, шамол, Бағринг камол, Онангни сув олиб кетди, Отангни сув олиб кетди, Болангни сув олиб кетди. Эса қол-эй!

* * *
Наврўз кунларида ер ҳайдаш, экин экиш юмушларини бажариш пайтида деҳқонлар "Хўп, ҳайда", "Майда-майда" қўшиқларини айтган бўлса, аёллар сигирларини эркалаб, сутини кўпайтириш учун қўшиқ айтиб соғарди. Соғим қўшиқларини оналаримиз ва момоларимиз ўзлари тўқиб ҳам хиргойи қилаверишарди.

Қишдан чиқиб, қувватсизланган сигирлар кўкламнинг илк майсаларига тўйиб қайтаётганида аёллар шу жониворларни «суқли» назарлардан эҳтиётлашган. Кўз тегмасин, дея шохлари ва туёқларига нуқра тошчалар тақиб қўйган. Сўнг подадан қайтаётган сигирларнинг йўлига чиқиб, ўзаро хиргойи қилишган:

Пода келар бош-бош, Шохи тўла нуқра тош. Елини тирсиллайди, Шохлари қирсиллайди. Пода келар бош-бош, Хўй, келаётган, четга қоч. Кўзинг тегиб уюримга, Дард келади сийиримга.
Хар гал Наврўз кунларида биз она табиат, осмон, хуллас, атрофимиздаги барча жониворлар билан мана шундай содда ва халқона қўшиқлар орқали "сўзлашардик", уларни бола қалбимиз билан яхши кўрардик.
* * *

Болалик кезларда дала гиёхларининг қай бирини гулидан, қай бирини ҳидидан ажратиб олардик. Сувқалампирнинг гуллари худди маржонга ўхшаш бўларди. Бўзновчинг гуллари сап-сарик, марваридгул эса кўнғирроқчани эслатарди. Далачой ва мойчечакнинг гулбарглари сулув, гулҳайрининг ифори майин, девонагулнинг товланиши чиройли эди. Ёмғир севалаб ўтган чоғларда бу ўт-ўланларнинг хушбўйи бутун борлиққа тараларди.

"Кўкатларнинг иси кўнглингни очади, кўкаламзор устидаги шудрингдан олиб ич, барча дардларинг кетади", дейишарди кексалар.

Майсаларга бўйлашиб, улар

билан жой талашиб ўсаётган ялпиз, исмалок, жағ-жағ, беда ҳам юз бир дардга даво экан.

* * *
Тупрокни ёриб яшашга чоғланаётган майсалар, ариқ бўйларидаги митти чучмомолар, қирда бойчечагу бинафшалар, боғлар ичида сайраётган қушларнинг барчаси Наврўз саҳарларида кутлуг кунни каршилаётгандай туюлади. Нозик ниҳол гулу гиёхлар хиди димоқни қитиклайди. Сумалак қозонлари атрофиди шўх болалар чугўрлайди.

Адирлар бағрида Наврўз гурунглари қизийди, айтишув ва лапарлар бошланади, беллашувлар авж олади.

"Қутлуг кунда ғамга ботмай, ўйнаб, кул, фақат яхши ниятлар қилсанг, келгуси Наврўзларга ҳам шоду хуррам етасан", деган ҳикматлар қадимдан қолган.

Қош қорайиб, тун киргач, сумалак қозони атрофиди давра қурилади. Момолардан бири чилдирма чалади, уни эшитганлар "сумалак сайли" бошланганини билиб, узоқ-яқиндан келаверади. Аввал момолардан бири ўйини лапарни бошлаб беради.

Қозон тўла сумалак, Сайилдан бердик дарак. Келаверинг минг малак, Сумалакжон, сумалак...
Кейин бошқалар ҳам шу момога жўр бўлади:

Қайдадир ўттиз малак, Улар солмаса намак, Қачон пишар сумалак?! Сумалакжон, сумалак...
Айтишларича, сумалак қозони атрофига келиб ўтирган ўттиз малак тонгга яқин қозонга туз-намак ташлаб, сўнг учиб кетишармиш. Бу эса сумалакнинг пишганини билдираркан. Шунинг учун ҳам лапарда туз-намак сўзи тез-тез тилга олиб турилади.

Онахонлар энди навбатни ёш кизу келинчақларга беради. Қиз-жувонлар рақс тушиб, бир-бирига гал бермай, ўзлари билган халқ қўшиқларидан қуйлайди.

Саҳар чоғида дам еб, пишган таомни сузишни кекса аёл бошлаб берган. У "Бисмиллохир роҳманир роҳийм", деб қозон оғзини очади ва шундай сўзларни такрорлайди:

Ғойибдан барака, Беҳиштдан маза, Менинг қўлим эмас, Биби Фотима онанинг қўллари...

Сўнгра сумалак қатор идишчаларга сузилиб, биринчиси ён-атрофдаги кекса ёки дардман кишиларнинг уйларига элтиб берилади. Шу жиҳатдан олганда, сумалак жуда кўп яхшиликларга йўл очувчи кутлуг таом саналади.

Момо чанқовузни лабига тутади. Бобо дўмбирани сайратади. Болакай қамишдан сибзизик ясайди. Катта майдондан отлар дупури эшитилади. Барча "қизқувди"ни кўрмоққа шошилади. Бир томонда кураш давом этади. "Ол, ха, ол!", "Ҳало, ҳало!" дея давра гувиллайди. Яна бир ёқда арқон тортишлар, беллашувлар тугаб, ҳаммалари "келин салом" бўлаётган жойга ошиқади. Кайвони момо ўртага чиқиб "салом" айтади:

Хирмонлар донга тўлсин, Дастурхон нонга тўлсин, Ўрт тинч, эл омон бўлсин, Ҳамма-хаммага салом...

Келинчақлар заррин ҳарир пардалар ортидан ним табассум қилиб, бирма-бир саломга эгилади.

Наврўзи айём томошалари кечга қадар давом этади. Шу аснода меҳр дилларни бир-бирига боғлайди, чеҳралар офтобдек ёришади, кўзлар қулиб, кўнгиллар яйрайди, вужудлар қуч-қувватга тўлиб, эртанги хайрли ва савоб ишларга чоғланади.

Гулчеҳра ЖАМИЛОВА, Ўзбекистон Ёзувчилар уюммаси аъзоси.

- Ҳа, хотин кайфиятинг йўқ, нима, тобинг қочдими? - Сардор ака Манзуранинг авзойини кўриб, хавотирланиб сўради.
- Сизга шундай туюлгандирда, мен яхшиман, ўзингиз чарчамай ишлаб келдингизми?
- Одатдаги ишда, уйга келсам, чарчоқларим ёзилади. Нима гап, бирор нарсани яширялсанми? Қани, кўзимга қара-чи!
- Қизингиз Мухайё келди...
- Хўш?
- Қўлинг сингур куёв ичиб келиб, нега овқат қилмадинг, деб яна урибди, юзлари кўкариб кетибди. «Эрим ишламаса, мени ишлагани қўймаса, рўзгорда ҳеч вақо йўқ. Жонимдан тўйиб кетдим», деб йиғлади. «Амаллаб тур», деб у-бу нарса бервордим.

...Қиз боланинг қисмати оғир бўлар экан. Фарзандинг-да, кўргиликларига чидаркансан. Сардор ака Мухайёни узатганда бундай бахтсиз бўлади, деб ўйламаганди. Оилада ёлғиз эрка ўғил бўлган Мансур на ўқиш, на ишлашни хаёлига келтиради. Ҳайдовчилик гувоҳномаси олиб берсам, уйлантириб қўйсам, балки сонга кириб қолар, деган қайнотанинг ҳам умидлари пучга чиқди.

Мансур бирор жойда ёлчитиб ишламади, Мухайёга уйланган ҳам ўзгармади. Сардор ака қизини ажратиб олай деса, иккита гулдай набираси бор, уларда нима айб?

- Шунақа дегин, қўй, куйинма хотин, мен эртага дўстим билан гаплашиб кўрай, фирмасига бирор ишга олармикан, - Сардор ака хотинига тасалли берди.
- Дўстим, иш йўқ эмас, бор! - деди Ҳасанали Сардор аканинг илтимосини эшитгач. - Бироқ куёвингни яхши биламан, бирор жойда қўним топиб, бир ой ҳам ёлчитиб ишламаган. Янги юк машинаси олганман, берсам, эплаб кетармикан?

- Эплайди, дўстим, эплайди, ўзим тергаб тураман, раҳмат!

Сардор ака Мансурни қақириб роса танбёх берди: - Куёв, қачонгача ишсиз санқиб юрмоқчисан? Эл-юрт олдиде иснодга қолдирдинг-ку! Нега аламингни хотинингдан олсан, нега норасида гўдакларингни ўйламайсан? Турқингни қара, кўчадаги гадойдан фарқинг қолмабди.

- Иш топилмаса, нима қилай? - ўзини оқлади Мансур.

- Неча марта иш топиб бердим?
- Ҳайдаб юборишса, нима қилай?
- Ҳайдаб юбормаслиги учун ишлаш керак, - Сардор ака ер чизиб ўтирган куёвга нафрат билан тикилди. - Хўш, энди нима қилмоқчисан?
- Иш топилса, ишлайман...
- Ҳой, менга қара, нотавон, бу гапни неча йилдан бери такрорлайсан? Охири марта кечираман. Эртага Ҳасанали акангнинг фирмасига бориб ишлайсан. Агар бу сафар ҳам юзимни ерга қаратсанг, Мухайёдан ҳам,



Аккад-Дакка

адабиётшуно олим, шоир Исмат Санаевдан ноёб тадқиқот

Улки, қадимий шаҳар, Араб ахлироқ бахти, Ўқилса, ўнг томондан, Бангладешнинг пойтахти.
Шу каби топишмоқ ўқиганмисиз ҳеч? Хўш, унинг жавобини топишга уриниб кўринг-чи? Топдингизми, унда сизни табриклайман.

Чунки бу топишмоқлар оддий топишмоқ эмас, маълум бир жанр асосида тузилиб, жамланган, ўқувчилар эътиборига ҳавола этилган ва китобхонларини илк топишмоғиданок қизиқтириб қўя оладиган китоб.

Гап шундаки, филология фанлари номзоди, шоир, адабиётшунос ва тарихнавис олим Исмат Санаевнинг "Топишмоқ, зўр топишмоқ" номли китоблар тўплами биз кўникиб қолган топишмоғу, саволли жумбоқлардан анча фарқ қилади. Олим ҳар галгидай, бу сафар ҳам ижодий янгиликка қўл урди. Бу сафар ҳам, дейишимизнинг боиси бор. Исмат Санаев бундан аввал адабиётнинг шу пайтга қадар олимлар назаридан четда бўлган маззуларини топиб, уларни тадқиқ этиб, тўплаб, китоб ҳолига келтирган ёки шу пайтгача ёзилмаган жанрларда ижод этиб, мухлисларига бу намуналарини тақдим этиб келаётир. Бу галгиси эса шунчаки ижод намунаси эмас, машаққатли изланишлар, сўз бойлиги-ю, луғатлар билан ишлаш, топқирлик, зийраклик кабиларни ишга солган ҳолдаги изланишлар маҳсулидир.

Дарвоқе, юқорида келтирилган топишмоқнинг жавобини тополмаганлар учун: Аккад-Дакка. Энди кейингисини ўқинг:

Улки, ялтироқ, гулдор, Ҳам майин ипак мато. Ўрин алмашса, ҳарфлар, Шаҳар, эл этган ато.
Бу топишмоқнинг жавоби: атлас – Талас. Эътибор берган бўлсангиз, топишмоқдаги жавоблар маълум бир қоидага асосланган. Яъни, китобни очиб, дарҳол топишмоқларни ўқишга киришиб кетсангиз, бироз адашасиз. Ҳар бир иш "бисмилло"дан деганидай, аввал китоб сўз бошиси-ю кириш қисми билан яхшилаб танишиб чиқишингизга тўғри келади. Унда олимлар ушбу жанр аҳамияти ҳақида тўхталишган. Шунингдек, муаллифнинг ўзи ҳам бу топишмоқлар келиб чиқиш сабабларига тўхталиб ўтган:

"Жаҳон адабиётида жанрлар кўп, санъат турлари ҳам бисёр. Ижодкорлар улардан самарали фойдаланиб, ўтган минг йиллар давомида ҳам ўз кадр-қимматини йўқотмайдиган, китобхоннинг сеvimли ва доимий мулкига айланган оламшумул аҳамиятга молик ажойиб асарлар яратиб, бизга бегараз мерос қолдирган. Айрим жанрлар ва санъат турлари борки, уларда қўйилган ўзига хос шартли талаблар, изланишга илҳақ муаммолар, синчковлик ва кунт билан ишлашсиз юз очмайдиган назокатли мураккабликлар боис

ижодкорлар эътиборидан четда қолгандай кўринади. Қадимий тарихга эга бўлган анаграмма, метаграмма, шарада, логогриф жанрларни мисол қилиб олсак, мақсадга мувофиқ бўлади. Ўзбек адабиётида бу жанрлар бўйича алоҳида китоблар нашр этилмаган. Шунинг учун бўлса керак, бугунгача чоп этилган қомусий, адабиётшунослик, тилшунослик ҳамда имло луғатларида ҳатто бу терминларнинг номлари ҳам келтирилмаган".

Саккиз китобдан иборат "Топишмоқ, зўр топишмоқ"нинг барчасида мана шу, тарихда бор, аммо бугун ҳатто адабиётшунослар қулоғига кам эланинадиган жанрларда битилган ижод намуналари ўрин олган. Тўғриси, китобларни варақлар экансиз, ҳайратингиз ошади, сўз билан ишлаш машаққатини билганлар эса ўн қарра кўпроқ ҳайратланишади. Жуда мураккаб меҳнат бу, ахир. Олимнинг бу галги янгилиги фақатгина унутилган жанрларни эслатиш, бунда битилган асарни қўрсатиб қўйишгина эмас, балки шу жанрда ўзбек тилида топишмоқлар битиб, уни ўқувчилар ҳукмига ҳавола этганидир. Бундай мураккаб меҳнатни баҳолашга ҳаққимиз йўқ, аммо "Офарин!" демасак, виждонимиз қийналади.

Равшан ЖОМОНОВ, Ўзбекистон давлат хореография академияси профессори.



болаларингдан ҳам умидингни узавер. Уларни сенга хўрлатиб қўймайман. Энди тур, жўна!

Орадан икки кун ўтгач, Сардор аканинг телефони жиринглади.

- Сардор, бу мен Ҳасаналиман.
- Эй, салом дўстим, ахволларинг қалай?
- Яхши, куёвинг келмади-ку? Кутиб туролмайман!
- Йўғз, бормадимми?

Сардор ака жаҳли чиқиб, куёвиникига йўл олди. Сабр косаси тўлган эди. Бу сафар кечирмайди. Бу қанақа одам-а? Кир юваётган Мухайё хавотирланиб отасига қаради.

- Ассалому алайкум, дадажон, келинг, тинчликми, энам яхшими?
- Яхши, эринг қани? Нега ишга бормади?
- Ухлаяпти.
- Ухлаяпти? Куппа-кундузи-я?

Сардор ака жаҳл билан уйга кирди. Ғужанак бўлиб ухлаб ётган Мансур қаттиқ тепкидан чўчиб уйғонди. Тепасида дарғазаб қайнотасини кўриб, довдираб қолди.

- Нега ишга бормадинг, одаммисан ўзи?
- Ёқмади, узоққа юк ташир эканман.
- Шунақами, демак, ишлашни хоҳламайсан?
- Бошқа иш топилиб қолар!
- Мана шу ётишингда-я? Сен одам бўлмас экансан?

- Сардор ака ёстиқни олиб, Мансурнинг башарасига отди.

- Эй, садқайи одам кет. Кейин ёнида йиғлаб турган Мухайёга буюрди:

- Қизим, қўй, йиғлама, садқайи кўз ёшинг кетсин. Нарсаларингни йиғиштир, уйга кетамиз! Бу уйни елкангнинг чуқури кўрсин!

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 488 nusxada chop etildi. Buyurtima 234. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

G'.HASANOV.

Navbatchi:

Y.MARQAYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda